**RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI**

# “ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TIBBIY TA’LIM YO’NALISHLARIDA QO’LLANILISHI”

O‘QUV- USLUBIY QO‘LLANMA



**ANDIJON -2025 yil**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**TIBBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI**
**RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**ANDIJON FILIALI**

**“KELISHILDI”**
Respublika o’rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hududiy hay’at raisi
M.T.Xakimova ________
2025 yil”_5_” _sentabr_

**“TASDIQLAYMAN”**
Respublika o’rta tibbiyot va farmasevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi direktorlar rayosati kengashi raisi
L.X.Musajonova ________
2025 yil”_5_” _sentabr_

# “ Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tibbiy ta’lim yo’nalishlarida qo’llanilishi ”

( Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish kurslari tinglovchilari uchun o‘quv -uslubiy qo‘llanma)

**Andijon- 2025 yil**

**Tuzuvchilar:**

| | |
|---|---|
| **M. Nurmatova** | Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi |
| **G. Sodiqova** | Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| **M. Qo'ziboyeva** | ADTI O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasi dotsenti |
| **K. Yu. Latipova** | ADTI fakultet terapiya kafedrasi katta o'qituvchisi |

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

"29" august 2025y bayonnoma № 4

Pedagogik kengash raisi: G.A.Turaxodjayeva

O'quv-uslubiy qo'llanma direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

"5" 09 2025y bayonnoma № 5

**Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish Markazi Andijon filiali o'qituvchisi M.M.Nurmatovaning "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tibbiy ta'lim yo'nalishlarida qo'llanilishi" mavzusida yozilgangan o'quv-uslubiy qo'llanmasiga**

## TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i ijrosini ta'minlash asosida ishlab chiqilgan o'quv -uslubiy qo'llanmadir.

O'quv-uslubiy qo'llanma fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. O'quv-uslubiy qo'llanma mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashda hozirgi zamon yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holatda o'tkazish alohida e'tiborga olingan.

O'quv-uslubiy qo'llanma mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlarni oddiy usular tariqasida o'rganishga, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.Ushbu qo'llanmaning asosiy maqsad va vazifalari tinglovchilarga dars samaradorligini oshirishdan iboratdir. Shu maqsadda M.M.Nurmatovaning ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmasini barcha malaka oshirish va ixtisoslashtirish o'quv guruhi tinglovchilariga dars mobaynida qo'llash mumkin.

**ADTI O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasi dotsenti.** **M.Qo'ziboyeva**

XODIMLAR BO'LIMI

**Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish Markazi Andijon filiali o'qituvchisi M.M.Nurmatovaning "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tibbiy ta'lim yo'nalishlarida qo'llanilishi" mavzusi bo'yicha xamshiralar uchun tayyorlagan o'quv-uslubiy qo'llanmasiga**

**TAQRIZ**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan qator farmonlar axoliga sifatli tibbiy yordam ko'rsatishning samarali modellarini joriy etish, xamda tibbiy xizmat samaradorligini, sifati, qamrovini oshirish uchun asos bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Sog'liqni saqlash tixzimini isloh qilish davlat dasturi", "Fuqarolar sog'ligini saqlash" to'g'risidagi qonunlarining qabul qilinishi, tibbiyot hamshiralarining aholiga tibbiy yordam ko'rsatishini butun choralar bilan kuchaytirish, onalik va bolalikni ximoya qilish, sog'lom avlodni kamol toptirish borasidagi g'amxo'rlik milliy tibbiyotimiz rivoji yo'lidagi sa'y-harakatlarni kengaytirdi.

Davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan hamda ishlash istagi bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari bugungi kunda o'z mutaxassisliklari bo'yicha har tomonlama bilimli bo'lishlari, o'z ishiga yuqori mas'uliyat bilan yondoshishlari lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, "Aholi salomatligini mustaxkamlash va yuqumsiz kasalliklarni oldini olish" davlatimizning ustivor yo'nalishi bo'lib, bu esa xududlarda qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni mustaxkamlash bilan birga axolining turmush tarzi va uzoq umr ko'rishi xamda xayot tarzini yaxshilashga yo'naltirish imkonini yaratadi.

"Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tibbiy ta'lim yo'nalishlarida qo'llanilishi" mavzusida yozilgan ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma davolash-profilaktika muassasalarida, shifoxona ichki kasalliklar bo'limlarida, ko'p tarmoqli poliklinikalar va oilaviy shifokorlik punktlarida, shoshilinch tez tibbiy yordam terapiya bo'limida ishlovchi hamshiralarni bilim saviyasini oshirish uchun mo'jallangan bo'lib, unda tinglovchilarga dasr mazmunini yanada osonroq tushunish uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmani Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish Markazi va uning filiallari tinglovchilari foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

**ADTI Fakultet terapiya**
**kafedrasi katta o'qituvchisi** **K.Yu.Latipova**

# MUNDARIJA


1.ISHCHI DASTUR ....................................................................................................5

2.ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TIBBIY TA’LIM YO’NALISHLARIDA QO’LLANILISHI………………………………………………5

3.NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI ...................................................................9

4. O‘QUV-USLUBIY QO’LLANMANI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI…………………………………………………11

5.NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI ...................................................................21

6. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI……………………………………..44

7.KEYSLAR BANKI ....................................................................................................53

8.GLOSSARIY ...........................................................................................................63

9.ADABIYOTLAR RO‘YXATI ......................................................................................65

## ISHCHI DASTUR

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv-uslubiy qo’llanma O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i ijrosini ta’minlash asosida ishlab chiqilgan o‘quv -uslubiy qo’llanmadir.

O‘quv-uslubiy qo’llanma fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. O‘quv-uslubiy qo’llanma mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashda hozirgi zamon yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holatda o’tkazish alohida e’tiborga olingan.

O‘quv-uslubiy qo’llanma mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlarni oddiy usular tariqasida o’rganishga, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

### “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tibbiy ta’lim yo’nalishlarida qo’llanilishi”

O‘quv-uslubiy qo’llanmaning maqsadi tinglovchilarni zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar haqida bilimlar malakalar va ko‘nikma sistemasini shakllantirish va

zamonaviy o‘qitish texnologiyasini o‘quv jarayonida qo‘llashni o‘rgatish.

**O‘quv-uslubiy qo’llanmaning vazifalari:**

- Tibbiyot fanlarini o‘qitishda pedagogik faoliyat, oliy ta’limda o‘qitish jarayonining texnologiyalashtirish bilan bog‘liqlikda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlashtirish;

- tinglovchilarning tibbiyot fanlari muammolarini tahlil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- tibbiyot fanlari muammolarini hal etish strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatish.

## O‘quv-uslubiy qo’llanma bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Tibbiyot fani bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar, o‘quv-uslubiy qo’llanmani o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida**:**

-texnologiyalashtirish qoidalari, tamoyillar;

-nazorat jarayonini tashkil etish;

-interfaol texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish haqida **bilimlarga ega bo‘lishi**;

-pedagogik faoliyat jarayonida o‘quv-uslubiy qo’llanmani ishlatish;

-nazorat jarayonini tez va samarali o‘tkaza olish;

-nazoratning turli shakllaridan samarali foydalanish;

-interfaol metodlarni maqsadli ravishda to‘g‘ri tanlash va foydalanish **ko‘nikmalarini egallashi;**

-o‘quv jarayonlarida o‘quv-uslubiy qo’llanmadan foydalanish;

-axborotni strukturalashtirish;
-talabalarning mustaqil amaliy faoliyatni tashkil etish;
-kirish va chiqish nazoratini tashkil etish erishilgan natijalarini tahlil etish;
-interfaol metodlardan foydalanish, **malakalarini egallashi;**
-o‘z sohasiga oid axborotni mantiqiy bloklarga ajratish va aniq, lo‘nda, tushunarli ravishda bayon etish;
-O‘quv-uslubiy qo’llanmaga yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil etish;
-texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish;
-kommunikativlikni va mustaqil faoliyatni tashkil etish yuzasidan kompetensiyalarni egallashi lozim.

## O‘quv-uslubiy qo’llanmani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tibbiy ta’lim yo’nalishlarida qo’llanilishi tinglovchilarni xorijiy tajribalar bilan tanishtirish, ularni amalda qo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishini nazarda tutadi;

Ushbu maqsad fanning oldiga quyidagi vazifalarni hal etishni qo‘yadi:
- tinglovchilarni xorijiy ta’lim tajribalari va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha mavjud bilimlar tizimi bilan qurollantirish;
- xorijiy, MDH va Respublikamizda ta’lim tizimi bo‘yicha tinglovchilarga ma’lumot berish;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta’lim tajribalar zamonaviy yondashuvlarga oid bilimlar berish;
-tinglovchilarda ilg‘or ta’lim texnologiyalari

bo‘yicha bilimlarni shakllantirish;

- Blended learning (aralash o‘qitish, case studi, masofaviy o‘qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlar bilan tanishtirish).

## O‘quv-uslubiy qo’llanmaning o‘quv rejadagi boshqa qo’llanmalar bilan bog‘liqligi va uzviyligi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tibbiy ta’lim yo’nalishlarida qo’llanilishi mazmuni o‘quv rejadagi boshqa mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## O‘quv-uslubiy qo’llanmaning ta’limdagi o‘rni

O‘quv-uslubiy qo’llanmani o‘zlashtirish orqali tinglovchilar tibbiyot fanlarini o‘qitishdagi ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1 – mavzu:Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda xorijiy tajribalar.

O‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta’lim tajribalari va zamonaviy yondashuvlar. Ilg‘or ta’lim texnologiyalari.

### 2 – mavzu: O‘quv jarayonining normativ-huquqiy asoslari

O‘quv jarayonini tashkil qilish normativ-huquqiy asoslari borasidagi ilg‘or xorijiy mamlakatlarning ta’lim tajribalari. Ilg‘or ta’lim texnologiyalari.

## AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

### 1- amaliy mashg‘ulot: Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar talabalar bilimini baholashning zamonaviy usullari

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar talabalar bilimini baholashning zamonaviy usullari bilan tanishadilar va ular asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda kichik guruhlarga bo‘lib o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

## 2- amaliy mashg‘ulot: Tibbiyot fanlarining o‘quv jarayonida yangi interaktiv usullari.

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar talabalar o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar bilan tanishadilar va ular asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda kichik guruhlarga bo‘lib o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

### O‘qitish shakllari

Mazkur o‘quv-uslubiy qo’llanma bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## O‘QUV-USLUBIY QO’LLANMANI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

| | |
|---|---|
| **S – (strength)** | • kuchli tomonlari |
| **W – (weakness)** | • zaif, kuchsiz tomonlari |
| **O – (opportunity)** | • imkoniyatlari |
| **T – (threat)** | • to‘siqlar |

**Namuna:** Pediatriya fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

| | | |
|---|---|---|
| **S** | Pediatriya ishi o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalarni kuchli tomonlari | foydalanuvchilar sonining ko‘pligi... |
| **W** | Pediatriya ishi o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalarni kuchsiz tomonlari | Robototexnika orqali ishlashi... |
| **O** | Pediatriya ishi o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalari tizimidan | Xirurgiya va boshqa davolash usullari bilan foydalanish |

| | | |
|---|---|---|
| | foydalanishning imkoniyatlari (ichki) | |
| **T** | To‘siqlar (tashqi) | Ma’lumotlar xavfsizligining to‘laqonli ta’minlanmaganligi... |

### “Xulosalash” (Rezyume, Veyer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. ―Xulosalash metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu

**Namuna:**

| Pediatriya fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalari **tizimlar** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Jarroxlik** | | **Terapiya** | | **Robototexnika** | |
| afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi |
| | | | | | |
| **Xulosa:** | | | | | |

## “Keys-stadi” metodi

**«Keys-stadi»** - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea- hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima- natija (What).

**“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

| **Ish bosqichlari** | **Faoliyat shakli va mazmuni** |
|---|---|
| **1-bosqich:** Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish | ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;<br>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);<br>✓ axborotni umumlashtirish;<br>✓ axborot tahlili;<br>✓ muammolarni aniqlash |
| **2-bosqich:** Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash | ✓ individual va guruhda ishlash;<br>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;<br>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| **3-bosqich:** Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish | ✓ individual va guruhda ishlash;<br>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;<br>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; |

| | |
|---|---|
| yo‘llarini ishlab chiqish | ✓ muqobil yechimlarni tanlash |
| **4-bosqich:** Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | ✓ yakka va guruhda ishlash;<br>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;<br>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;<br>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

Namuna:**Keys.** Xorijiy tajribalar bo‘yicha uslublarni ko‘rsating. Ishda ishlatilishi va afzalligi. Yangi texnologiyalarning davolash ishidagi vazifalari.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang(individual va kichik guruhda).

**«FSMU» metodi**

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:




**Namuna.**

**Fikr:“Xorijiy tajriba obyektga yo‘naltirilgan dasturlashning asosiy tamoyillaridan biridir”.**

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

## “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Vizual materiallar namuna**



## “Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

1–qator – tushuncha;

2- qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat;

3- qator – ushbu tushuncha vazifalari to‘g‘risidagi 3 ta fe’l;

4- qator – ushbu tushuncha mohiyati to‘g‘risidagi 4 so‘zdan iborat so‘z birikmasi;

5- qator – ushbu tushuncha sinonimi.

**Namuna: Kompyuter suziga tuzilgan “Sinkveyn”**

Kompyuter Sifatli,

tezkor,qulay

To‘playdi, saklaydi, uzatadi

Zamonaviy axborot texnologiya vositasi

Intellekt

## “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.'

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

| **Belgilar** | **1-matn** | **2-matn** | **3-matn** |
|---|---|---|---|
| —V – tanish ma'lumot. | | | |
| —? – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak. | | | |
| —+ bu ma'lumot men uchun yangilik. | | | |
| —– - bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman? | | | |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

## “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni oʻzlashtirish darajasini aniqlash, oʻz bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qoʻllaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashgʻulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- oʻquvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli boʻlgan soʻzlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- oʻquvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qoʻllanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach oʻqituvchi berilgan tushunchalarning toʻgʻri va toʻliq izohini oʻqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan toʻgʻri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va oʻz bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

# NAZARIY MATERIALLAR

## 1- mavzu: Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda xorijiy tajribalar.

**Reja:**

1. Xorijiy davlatlar ta’lim tizimi haqida ma’lumotlar

2. O‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta’lim tajribalari va zamonaviy yondashuvlar.

**Tayanch iboralar**: ta’lim, pedagogik texnologiya, pedagog, ilg‘or tajribalar, ta’lim metodi, ta’lim oluvchi, moderator, tyutor, edvayzer, fasilitator.

### 1.1 Xorijiy davlatlar ta’lim tizimi haqida ma’lumotlar.

### Yaponiyada ta’lim tizimi

Sharqning eng ilg‘or mamlakatlaridan biri Yaponiyada pediatriya o‘qitishda eng samarali va ta’sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida institut tanlangan. Chunki institutda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi.Masalan yurak nuksonlari interaktiv uslublar bilan beriladi. Bu usul AQSH da paydo bo‘lib sanoat korxonalarida konveyerli ishlab chiqarish ko‘paygan sari shunday o‘rgatish usullari zarur bo‘lib qoldiki, ishchilar bir hilda qaytariladigan qo‘l ko‘nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o‘rganibolishlarikerakedi. Bu usulda amaliy ko‘nikmalarni [1]

---

1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O‘quv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].

o‘zlashtirish jarayoni 4 pog‘ona doirasida kechadi. Bu pog‘onalarning nomi: «Tushuntirish», «Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish», «Ko‘rsatilgan tarzda qaytarish», «Mashq qilish». Ya’ni amaliyot o‘qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko‘rsatadi. So‘ng talaba shu ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyot o‘qituvchisi xatolarini to‘g‘rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

Unday keyin esa shu ish bosqichi mashq tarzida tinglovchi uni mukammal o‘zlashtirgunicha ko‘p marotaba qaytariladi. Bu usul psixologiyada asoslangan bo‘lib, bixeviorizm (ya’ni inson o‘zini tutishiga oid) nazariyalardan olingan. Dastlab hayvonlar ustida o‘tkazilgan eksperimentlar yo‘lida olingan natijalar keyinchalik insonga nisbatan qo‘llanila boshlangan. Bu yerda qo‘zg‘ovchi va reaksiya kabi elementlar hamda konkret o‘lchanishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatgichlar muhim rol o‘ynagan. Chunki olimlar fikri bo‘yicha reja asosida ishlatilgan tashqi qo‘zg‘ovchilar va nazorat qilinishi mumkin bo‘lgan reaksiyalargina yetarli darajada tekshirilishi mumkin va shundan kelib chiqib, umumiy ilmiy xulosalar chiqarish mumkin deb hisoblangan. Quyidagi ilmiy xulosalarni ta’kidlab o‘tish zarur:

1. O‘zlashtirish (o‘rganish) - bu «qo‘zg‘ash ta’siri-reaksiya» ketma- ketligi takrorlanishining natijasidir. Shu takrorlar soni qancha qo‘p bo‘lsa o‘zlashtirish natijasi shuncha yaxshi bo‘ladi. («Takror orqali o‘rganish» prinsipi).
2. Ikkinchi qo‘zg‘ovchi birinchi qo‘zg‘ovchi bilan birgalikda tez-tez ishlatilib tursa, u birinchi qo‘zg‘ovchining o‘rnini bosa oladi. («Shartli reflekslar orqali o‘rganish» prinsipi). 4 pog‘ona usuli Tushuntirish Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish ko‘rsatilgan tarzda qaytarish mashq 293. O‘zlashtirishda erishilgan yaxshi natijalar maqtab turilsa, bunday

natijalar ko‘payib boraveradi. («Kuchaytirish orqali o‘rganish» prinsipi). 4.

Aniq birmaqsadga qaratilgan tarzda ishlatilgan maqtov va jazolar orqali deyarl I istalgancha tegishli o‘zini tutish tarzlari o‘zlashtirilishi va yana yo‘q qilinishi mumkin.

Amaliyotda o‘rganish uchun esa bundan quyidagi xulosalar chiqarildi: Qo‘zg‘ovchi sifatida berilgan har bir qisqa savolga iloji boricha to‘g‘ri javob berilishi bilan uni darrov (masalan «Yaxshi javob!» deb) maqtab qo‘yish kerak. Noto‘g‘ri javob ham ochiq va oydin tanqidlanishi (tanbehlanishi) lozim. Yoki amaliyotda: talabalar bir iloji boricha qisqa ish bosqichi bilan tanishtiriladi, so‘ng uni qaytaradilar va to uni mukammal bilmagunlaricha mashq qiladilar. Bu ham ochiq va oydin tan olinishi kerak. Bu yerda kichik o‘quv bosqichlar katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda bu usulga ba’zi didaktik elementlar qo‘shilib, mukammalashtirildi. Bundan tashqari bosqichlarni biroz murakkabroq qilishga harakat qilinmoqda. YA’ni shunday mashqlar ham kiritilishi mumkinki ular doirasida talaba birdaniga bir necha ko‘nikmalar va operatsiyalarni amalda bajarishi kerak. «Tushuntirish» va «nima qilishni ko‘rsatib berish» pog‘onalari esa bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ko‘nikmalarni o‘rgatishda esa bu usul o‘zini juda ham yaxshi oqladi. Shuning uchun bu usul kasbiy-texnikaviy sohalarda eng avvalo ish o‘rnida kerakli ko‘nikmalarni o‘rgatishda kelajakda ham muhim rol o‘ynaydi. [1]

## AQSh ta’lim tizimi

Yo‘naltiruvchi matn usuli. Yo‘naltiruvchi matn usuli o‘tgan asrning 70 yillarida «Daimler Benz» korxonasining Gaggenau shahridagi (Daimler Benz AG (Gaggenau) o‘quv ustaxonasi tomonidan ishlab chiqargan. Bu usul tovush va tasvirli prezentatsiyalar bilan jihozlangan mustaqil o‘rganish dasturlari shaklidagi loyihaviy kasb-hunar ta’limiga qo‘shimcha sifatida ishlab chiqarilgan. Boshlang‘ich shaklida bu usul kasb- hunar ta’limi amaliyotchilari tomonidan ishlab chiqargan keyinchalik esa nazariy jihatdan asoslanib ilmiy asosda takomillashtirilib oliy ta’limda qo‘llanila[1] boshlangan. Yo‘naltiruvchi matn usulida quyidagi 6 bosqich farqlanadi. Ular doirasimon harakatda almashishadi:

1. Ma’lumot yig‘ish
2. Rejalashtirish
3. Qaror qabul qilish
4. Amalga oshirish
5. Tekshirish
6. Xulosa chiqarish

Bu bosqichlar hammasi talaba tomonidan amalga oshiriladi. Bu usulni ishlab chiqarilishiga sabab loyihalar ustida ish bilan bog‘liq tashkiliy muammolar edi, chunki o‘quvchilar har xil tezlikda ishlashlari tufayli butun guruh uchun instruktaj o‘tkazishga qulay vaqtni topish qiyin edi. Bir o‘quvchi hammadan tez ishlab yangi ko‘nikmani o‘rganishga tayyor bo‘lgan bo‘lsa, sekinroq ishlagan talabalar uchun esa yangi instruktajning foydasi juda kam edi. Qaytaga yangi instruktaj ularning ishlariga xalal berganday yoki keragi yo‘q to‘xtalish kabi tuyular edi. Ya’ni talabalar qiziqishi (motivatsiyasi) qisman barbod qilinadi. Yo‘naltiruvchi matn usuli bosqichlari amaliyot o‘qituvchisiningo‘qitish tarzi: o‘quv material va yo‘naltiruvchi savollarni berish, instruktaj esa – faqat kerak bo‘lganda

1.Mustaqil ravishda ma’lumot yig‘ish reja tuzish uchun qo‘llanmalar, formulyarlarni tayyorlab berish.
2. Mustaqil ravishda reja tuzish takliflarni muhokama qilish
3. Mustaqil ravishda qaror qabul qilish materialni berish muamolarni muhokama qilish

4. Mustaqil ravishda amalga oshirish nazorat varag'ini birgalikda ishlab chiqarish
5. Mustaqil ravishda tekshirish xulosa chiqarish
6. Mustaqil ravishda xulosa chiqarish
7.Yo'naltiruvchi matnlar yordami bilan mustaqil instruktaj imkoniyati paydo bo'ldi va har bir o'quvchi aynan unga yangi ko'nikma uchun bilimlar kerak bo'lgan paytda shu bilimlarni olishi mumkin bo'ldi.

Eng birinchi yo'naltiruvchi matnlar bu asli og'zaki ravishda o'tkaziladigan instruktajlarning yozma shakli edi. Lekin baribir barcha maxsus ma'lumotlar talabalarga iloji boricha og'zaki berilar edi. Bugungi kunda esa yo'naltiruvchi matnlar shunday tuzilganki talabalar yo'naltiruvchi savollar yordamida o'zlari kerakli ma'lumotlarni (kitob jadval instruksiya videokassetalar yoki kompyuter disklaridan olib) ishlab chiqarishni o'rganishadi.

Natijada hozir yangi bir o'rgatish usuli va yangi bir o'rganishni tashkillashtirish tarzi vujudga keldi. Uning asosiy belgisi - bu o'quvchi ko'prok mustaqil ravishda o'rganishidir; amaliyot o'qituvchisi esa zaifroq talabalar bilan ko'proq shug'ullanishi mumkin bo'lib qoldi. Talabalarning mustaqil ishlashi esa o'z navbatida qo'shimcha foyda keltirmoqda: yuqoriroq ko'nikma va qobiliyatlar sohasida ya'ni birgalikda muloqotda bo'lish, birgalikda reja tuzish, qaror qabul qilish hamda o'z ishini tekshirish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Komandada (birgalikda) ishlash orqali muayan ijtimoiy kompetensiyalar rivoj topadi va ularga mo'ljallangan maqsadlar ham belgilanishi mumkin bo'ldi. Ko'rib turibmizki, vaqt o'tgan sari yo'naltiruvchi matn usuli qo'llanishining ma'nosi o'zgardi chunki bugungi kunga kelib bu usul aynan o'sha «poydevor kvalifikatsiyalar» deb atalgan qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida qo'llanadi.

Bu tushunchani Germaniyada ta’limot munozarasiga mehnat bozori tadqiqotchisi D. Mertens kiritgan. U bu tushuncha bilan asosan uslubiy kompetensiyalarni (ya’ni fikrlash, tashkillashtirish va rejalashtirish usullarini) atagan. Hozirgi kunda esa bu tushuncha bilan shunday qobiliyatlar ko‘nikma va o‘zini tutish tarzlari ataladiki, ular aynan shu kasb-hunarga oid kvalifikatsiyalardan tashqari va ularga qo‘shimcha sifatida barcha boshqa kasb-hunarlarda kerak bo‘ladigan hatti-harakatlarni bildiradi. Bular orasida - mustaqil rejalashtirish amalga oshirish va o‘z ishini tekshirish. 4 pog‘ona usuli bilan solishtiradigan bo‘lsak bu usulda amaliyot o‘qituvchisining faoliyati ko‘proq darsdan oldin va darsdan keyin qilinadigan ishlardan iborat. Lekin bevosita instruktaj jarayonida qilinadigan ishlar emas; o‘quvchilar esa qaytaga barcha davrlarda (fazalarda) mustaqil ishlashadi.

## 1.2. O‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta’lim tajribalar zamonaviy yondashuvlar.

O‘quv-uslubiy qo’llanmali o‘qitish - o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta’lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. An’anaviy ta’limda o‘quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya’ni bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, O‘quv-uslubiy qo’llanmali o‘qitishda ta’lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘quv-uslubiy qo’llanmali o‘qitish texnologiyasining an’anaviy o‘qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik:

- bir tomonga yo‘naltirilgan axborot Bir tomonlama muloqot (darslik o‘qituvchi o‘quvchi;
- axborot olish;
- xotirada saqlash ma’nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash;

- fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag‘batlantirish;
- ikki tomonlama muloqot;
- tahlil qilish orqali ma’lumotni eslab qolish;
- bilim va ko‘nikmalarni namoyish etish;
- mazmunni tushunish va hayotga bog‘lash.

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘quv-uslubiy qo’llanmali texnologiyaga asoslangan ta’lim an’anaviy ta’limdan o‘qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi. O‘quv-uslubiy qo’llanmali o‘qitish ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi. O‘quv-uslubiy qo’llanma – faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi; o‘qitishni individuallashtirish; - amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish; - kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish. O‘quv-uslubiy qo’llanmali o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:[1] - ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi; - malakali professor- o‘qituvchilar tarkibi darajasi; - talabalar tayyorgarligi darajasiga; - kutiladigan natijalar bahosiga; - didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga; - O‘quv-uslubiy qo’llanmalar natijasi va tahliliga.

O‘quv-uslubiy qo’llanmani o‘qitishda o‘quv dasturlarini to‘la qisqartirilgan vachuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin bo‘ladi. O‘quv-uslubiy qo’llanmani o‘qitishga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi: - o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash; - o‘qitishni individuallashtirish; - o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish; - o‘qitishni jadallashtirish; - fanni samarali o‘zlashtirishga erishish.

1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O‘quv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser

and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].

O‘quv-uslubiy qo’llanmani o‘qitish fanning asosiy masalalari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar beruvchi muammoli va yo‘riqli ma’ruzalar o‘qilishini taqozo etadi. Ma’ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim. O‘quv-uslubiy qo’llanma amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ma’ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma’ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldirilishi kerak.

O‘quv-uslubiy qo’llanmani o‘qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o‘qitishning quyidagi usullarini qo‘llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o‘quv o‘yinlar;
-loyihalash va yo‘naltiruvchi matnlar va hokazo.

O‘qitishning o‘quv-uslubiy qo’llanma tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi: fanlar va fanlar ichidagi o‘quv-uslubiy qo’llanmalar orasidagi o‘qitish uzluksizligini ta’minlanishi; har bir o‘quv-uslubiy qo’llanma ichida va ular orasida o‘quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvoffiqligini o‘rnatilishi; fanning o‘quv-uslubiy qo’llanmali tuzilish tarkibining moslanuvchanligi; talabalar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi O‘quv-uslubiy qo’llanmadan so‘ng) qilinishi; talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko‘ra tabaqalanishi (dastlabki O‘quv-uslubiy qo’llanmalardan so‘ng o‘qituvchi ayrim talabalarga fanni individullashtirishni tavsiya etishi mumkin); axborotni «siqib» berish natijasida o‘qitishni[1] jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o‘quv vaqti tarkibini ma’ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg‘ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida talaba yetarli bilimlarga ko‘nikmaga ega bo‘ladi. O‘quv-uslubiy qo’llanmali metodika asosida o‘qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish,

1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O‘quv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].

O‘quv-uslubiy qo’llanma muammolilik, kognitivvizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvoffiq ishlab chiqilishi lozim.
O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra o‘quv-uslubiy qo’llanmali metodika asosida o‘qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.

## Nazorat savollari:

1. ―Pediatriya fani bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar‖ tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?

2. ―Pediatriya fani bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar‖ning maqsadi nimadan iborat va u qanday vazifalarni hal qiladi?

3. ―Pediatriya fani bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar‖ning obyekti va predmetini nima tashkil etadi?

4. ―Pediatriya fani bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar‖ning asosiy kategoriyalari qaysilar?

5. ―Pediatriya fani bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar‖ qanday fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi?

6. Xorijiy tajribalar shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llaniladi?

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O‘quv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of

the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].

2. Sánchez Carpintero I, Mihm MC, Waner M. Laser and intense pulsed light in the treatment of infantile haemangiomas and vascular malformations. An Sist Sanit Navar. 2015;27 Suppl 1:103-15.
3. Pence B, Aybey B, Ergenekon G. Outcomes of 532 nm frequency-doubled Nd:YAG laser use in the treatment of port-wine stains. Dermatol Surg. May 2015;31(5):509-17. [Medline].
4. Li DN, Gold MH, Sun ZS, Tang AR, Wang HB, Sheng-Kang L. Treatment of infantile hemangioma with optimal pulse technology. J Cosmet Laser Ther. 2010 Jun;12(3):145-50.
5. Saafan AM, Salah MM. Using pulsed dual-wavelength 595 and 1064 nm is more effective in the management of hemangiomas. J Drugs Dermatol. 2010 Apr;9(4):310-4.

## 2-mavzu: O‘quv jarayonining normativ-huquqiy asoslari.

**Reja:**

1. Ilg‘or xorijiy tajribalar nazariyasi va amaliyoti qo‘llanishining asosiy qonunlari va prinsiplari.
2. Pediatriyada zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari.

**Tayanch iboralar:** Ta’lim metodlari, ta’lim tamoyillari, o‘quv jarayonini tashkil etishning texnologiyasi, talabaning mehnat sarfi, , syllabus, o‘tish koeffitsiyenti, talabalar bilimini baholash uslubiyoti, baholash mezonlari.

## 1.1Ilg‘or xorijiy tajribalar nazariyasi va amaliyotining kullanishining asosiy qonunlari va prinsiplari

Muammoni ifodalanishi: 1. Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun yetilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yetishmasligi o‘rtasidagi ziddiyatni belgilaydi. 2. Muammoni asosiy tarkibiy qismlari (muammo, osti muammolar)ni ajratadi. Keysning dasturiy kartasi keys uchun axborot yig‘ish va vaziyatni bayon qilish uchun asos bo‘ladigan asosiy masalalar(tezislar)ning tuzilmalangan ro‘yxatidan iborat bo‘ladi.

Pedagogik annotatsiya quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. keysda mo‘ljallangan predmet bo‘lim mavzu ta’lim darajasi kurs ko‘rsatiladi;

2.keysdan ko‘zlangan maqsad (ta’limiy maqsad rejalashtiriladigan o‘quv natijalari;

3. talabalar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo‘lgan dastlabki bilim va malakalar;

4. keys real institusional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun’iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma’lumot[1].

5. axborot olish manbalari ro‘yxat;

---

1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O‘quv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].

6. keysning o‘ziga xos belgilariga ko‘ra tavsifnomasi (syujet, keys obyekti mavjudligi materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o‘ziga xos xususiyatlari o‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli chizmalashtirish usuli);

7. keysdan ko‘zlangan maqsad va tegishlicha tashkiliy-uslubiy ta’minoti o‘zgarganida u qo‘llanilishimumkin bo‘lgan o‘quv predmetlari ro‘yxati.

Keys-ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir. Keys usuli ishlab chiqarish masalalarini mashg‘ulotlarda tahlil qilish va hal qilish usuli unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo‘yicha fikr yuritish taklif qilinib bu vaziyat bayonida nafaqat amaliy masala ifodalanib qolmasdan undagi muammoni yechish jarayonida o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan o‘quv materiali ham ifodalanadi. Muammolarni oldini olish yo‘llarini ishlab chiqish ―Keys stadi‖ga asoslanagan o‘qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga muammolarni tahlil qilish va uning yechimini yakka thartibda yoki guruhlarda yecha olish 52 ko‘nikmalarini egallashga ijodiy vao‘rganish qobiliyatlari mantiqiy fikrlash nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi. O‘quv mashg‘ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha:

1.Topshiriqni berish (topshiriqni bajarish muddatini belgilash keysning yechimini baholash tizimi bilan tanishtirish darsning texnologik modelini aniqlash).[1]

2. Ta’lim beruvchining kirish so‘zi. Asosiy savollarning qo‘yilishi.
3. Ta’lim oluvchilarni 4-6 kishidan iborat mikroguruhlarga ajratish.
4. Ta’lim oluvchilarning mikroguruhlardagi faoliyatini tashkil qilish (mikroguruhlarni nomlash yetakchilarni va ekspert guruhini aniqlash).

5. Mikro guruhlardagi javoblar bilan tanishishini tashkil qilish

6. Mikro guruhlararo munozarani tashkil qilish.

7. Ta'lim beruvchining umumlashtiruvchi so'zi uning vaziyat yechimi to'g'risidagi fikri.

8. Ta'lim oluvchilarni ekspertlar tomonidan baholanishi.

9. Ta'lim oluvchilarning mashg'ulot haqidagi fikrlari.

10. Ta'lim beruvchining yakunlovchi so'zi.

Mashg'ulot bo'yicha xulosalar chiqarish. Keyslarni hal qilishda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni yo'naltirib turishi va ulardagi faollikni qo'llashi hal qilinayotgan muammoga nisbatan qiziqish uyg'otib turishi darkor. Keyslardan ta'lim jarayonida foydalanish ta'lim oluvchilar shaxsida quyidagi professional-pedagogik zaruriy sifatlarni shakllantiradi: -mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi; - mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi; -nazariya va amaliyot o'rtasida uzviy bog'liklikni shakllantiradi; -muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi; -vaziyatlarni hal etishda unga ta'sir etuvchi omillarning mavjudligi va ularning ta'sirini e'tiborga olishga imkon beradi; -boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi; -savol berish madaniyatini tarkib toptiradi; -qabul qilingan qaror uchun mas'ullik hissini tarbiyalaydi/ 53 Keyslarni hal qilishda quyidagilarga e'tibor berish zarur: asosiy muammoni va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash asosiy va ikkinchi darajali omillarni ajratish muammoni hal qilishning muqobil yechimini ham ko'rib chiqish eng maqbul qaror qabul qilish.

---

1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O'quv-uslubiy qo'llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].

Keyslarni hal qilishda yozma usulda tahlil qilish unda bayon etilgan muammoni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi yoxud yozma nutq ham Xalqaro RWCT dasturida mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar pedagogika o‘qitish metodikasi va pedagogik mahorat asoslari fanlari mashg‘ulotlarida bu kabi keyslarni yechish ta’lim oluvchilarning faolligini oshiribgina qolmasdan balki mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularni bo‘lajak mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.[1]

## 2.2 Tibbiyot fanlarida zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari.

Pedagogika fani bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta’lim chet el tajribalarini o‘rganish uni ilmiy tushunish ilg‘or g‘oyalardan milliy ta’lim amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. "Kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi". Shu bilan birga milliy g‘oyalar va an’analarda qurilgan ta’lim har doim milliy rivojlanish masalalariga javob berishini esda tutish kerak. Bunday ta’limning texnik yoki tashkiliy shakllari turlicha bo‘lishi mumkin ba’zan umuman odatdan tashqari tasavvur qilib bo‘lmagan 56 ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin.

Ammo bizning chuqur ishonch hosil qilishimizga oxir-oqibat odamning ta’lim olishi natijasi faqat o‘quv faoliyati shakllari shu jumladan masofaviy ta’lim bilan belgilanmaydi balki o‘quv jarayoni quriladigan tayanch psixologik - pedagogik mazmunga bog‘liq bo‘ladi. Aynan mana shu

mazmunlarini izlab topish milliy mentalitetga nisbatan masofali ta’lim asoslarini ishlab chiqish boshlang‘ich vazifasi hisoblanadi. Bu "narsa" turli ramziy amaliyotlar ekranlarida aks ettirilib namoyon bo‘ladi. Fikri sezgilari va harakatlaridamoddiylashadi. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo‘nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi.

Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta’lim olish usulidan biri hisoblangan masofali ta’lim mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta’limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o‘qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta’limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta’lim tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak. Chet el ta’lim tizimlarida masofali o‘qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o‘rganishda ta’lim muassalarida masofali o‘qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta’limni didaktik ta’minlash vositalarini tahlil qilishga e’tiborni qaratish zarur.

Solishtirish metodi mohiyatini xitoy olimi X. Shu va N. Chjoular to‘la ochib beradilar: "Agarda millat vaqt o‘qida o‘zining turgan joyini tarixiy yoki "vertikal" solishtirishlar bilan aniqlay olsa shunda u millatlararo yoki "gorizontal" solishtirishlar yordamida dunyodagi o‘z o‘rni to‘g‘risida yaxshiroq tasavvurga ega bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda "vertikal" solishtirish ishonch uyg‘otadi "gorizontal" esa realist bo‘lishga majbur etadi". Masofali ta’lim - masofada turib o‘quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta’lim muhiti yordamida ta’lim xizmatlari to‘plamidan iborat. Masofali ta’lim axborot - ta’lim muhiti foydalanuvchilar ta’lim olish ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan ma’lumotlar uzatish vositalari axborot resurslari o‘zaro aloqalar protokollari appharat - dasturli va tashkiliy-metodik ta’minotlar sistemali - tashkiliy to‘plamidan iborat.

Masofali ta’lim - o‘qituvchilarga o‘rganilayotgan material asosiy hajmini yetkazib berishni o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar va talablarning interaktiv o‘zaro aloqalarini, talabalarga o‘rganilayotgan materialni mustaqil o‘zlashtirish bo‘yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o‘qish jarayonida ularning olgan bilimlarini va ko‘nikmalarini baholashni ta’minlovchi axborot texnologiyalari to‘plami [1.] Keltirilgan tushunchalardan taqqoslash tadqiqotini o‘tkazishda dunyoda masofali o‘qitish ta’lim muhiti qanday shakllanishiga asosiy e’tiborni qaratish zarurligi ko‘rinib turibdi. Shu bilan birga bizni birinchi navbatda ta’limning mana shu sohasi rivojlanishi tendensiyalari qiziqtiradi.

Umuman ta’limning noan’anaviy shakllariga o‘tishda dunyo tendensiyalari yangi axborot texnologiyalari bo‘yicha tayyorgarlik olib boruvchi kasbiy o‘quv yurtlarining soni ortib borishi kuzatiladi. Universitetlar tashkiliy tizimlarining birlashtirilishi masofali ta’limning o‘ziga xos tendensiyasi hisoblanadi. Misol uchun oxirgi yillarda masofali universitet ta’limi tashkiliy tuzilishi yangi turi - universitetlar konsorsiumi rivojlanmoqda. Bir necha universitetlar faoliyatini birlashtiruvchi va boshqaruvchi maxsus tashkilot masofali ta’lim xizmatlarini ko‘rsatmoqda[3].

Universitetlar konsorsiumi turli universitetlarda ishlab chiqilgan abituriyentlar uchun kurslardan tortib ilmiy daraja olishgacha bo‘lgan kurslardan iborat kurslar to‘plamini taklifetadi. G‘arbiy Yevropada oliy ta’lim olish darajasidan masofali ta’lim "ochiq universitetlar" deb ataluvchi shakllarda amalga oshiriladi[2].

---

1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O‘quv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].
2. Sánchez Carpintero I, Mihm MC, Waner M. Laser and intense pulsed light in the treatment of infantile haemangiomas and vascular malformations. An Sist Sanit Navar. 2015;27 Suppl 1:103-15.
3. Pence B, Aybey B, Ergenekon G. Outcomes of 532 nm frequency-doubled Nd:YAG laser use in the treatment of port-wine stains. Dermatol Surg. May 2015;31(5):509-17. [Medline].

Milliy ochiq universitetlar ko‘p jihatdan sirtqi ta’lim tashkiliy prinsiplaridan foydalanadilar. Ochiq ta’lim asosida - o‘qituvchilar o‘zlari oldilarida turgan ta’lim maqsadlariga erishishga intilib to‘la mustaqil yo‘naladigan ta’lim muhiti puxta ishlab chiqilgan.

Ta’limning ochiqligi prinsipi quyidagini anglatadi: oliy o‘quv yurtiga ochiq o‘qishga qabul qilishi ya’ni zarur yoshga yetishdan tashqari (18 yosh) har qanday shart va talablardan voz kechish; o‘qishni ochiq rejalashtirish ya’ni kurslar sistemasidan yo‘li bilan o‘qish individual dasturini tuzish erkinligi; o‘qish vaqti va sur’atlarini erkin tanlash ya’ni butun yil davomida talabalarni oliy o‘quv yurtiga qabul qilish va belgilangan o‘qish muddatlarining yo‘qligi; o‘qish joyini erkin tanlash: o‘quv vaqti asosiy qismida talabalar o‘quv auditoriyalarida jismonan bo‘lmaydilar va qayerda o‘qishni mustaqil tanlay oladilar.

Ochiqlik prinsipini amalga oshirish katta tashkiliy yangiliklarga olib keldi ularni axborotlarni saqlash qayta ishlab chiqish va yetkazish yangi texnologiyalarini tatbiq etish hisobiga amaliy amalga oshirilishi mumkin bo‘ldi. 58 Misol uchun o‘tgan asr 90-yillarida telekonferensiyalar o‘tkazish texnologiyasi asosida masofali ta’lim yangi modeli paydo bo‘ldi. Modelning asosini o‘qituvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqalar asosiy shakli hisoblangan haqiqiy vaqt davomida ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan telekonferensiyalar o‘tkazishdan iborat. Shu bilan birga telekonferensiyalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida ham va o‘quvchilarning o‘zlari o‘rtalarida ham o‘tkazilishi mumkin. Bular audio audiografik video-kompyuterli telekonferensiyalar bo‘lishi mumkin. Teleta’lim modeli yaqinda paydo bo‘ldi lekin u zamonaviy ta’limda tashkil etishda tubdan o‘zgarishlarga olib kelmoqda.

Mana shu asosida zamonaviy ta’limning yangi tashkiliy shakli - virtual universitetlar rivojlanayotganligida bu yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘qishning bu shaklini biz yangi ta’limning endi paydo bo‘layotgan modeli sifatida qaraymiz. Mazkur modelida o‘quv maqsadlarida foydalaniladigan

telekonferensiyalar texnologiyasiga ega bo‘lgan ta’lim tizimini qayta qurish mavjud imkoniyatlari amalga oshiriladi. Bu texnologiyalar talabalar guruhlariga va alohida o‘qituvchilarga bir-biridan har qanday masofadan turib o‘quvchilar bilan va o‘zaro uchrashish imkonini beradi.

Bunday zamonaviy telekommunikatsiya vositalari bosma matnlar audio va videotasmalar o‘rnini bosuvchi kompyuterli o‘quv dasturlari bilan to‘ldiriladi. Masofali ta’limning bunday modeli paydo bo‘lishi faqatgina masofadan turib emas, balki ta’lim muassasasi qandayligidan qat’iy nazar ta’lim berishni olib borishga olib keladi. Bunday model hali to‘la amalga oshirilgan emas.

Bu model katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda xususan jamoatchilik tomonidan tan olinishi va ma’lum ilmiy daraja berish diplom va sertifikatlar berish huquqini olish (virtual universitet akkreditatsiyasi) muammolari. Mana shu qiyinchiliklarni yo‘qotish va virtual universitet modelining to‘la rivojlanishi zamonaviy ta’lim tashkiliy tuzilishida chuqur o‘zgarishlarni anglatadi. Masofali ta’lim faqatgina milliy ta’lim tizimi (institusional) doirasidagina emas balki oliy ta’lim butun dasturining to‘rtdan bir qismini tashkil etuvchi asosan biznes sohasida tayyorlashga yo‘naltirilgan alohida tijorat kompaniyalari tomonidan ham rivojlantirilayotganini alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

IBM General Motors Ford kabi va boshqa kompaniyalar tomonidan xususiy korporativ ta’lim tharmoqlari yaratilgan. Mana shu ta’lim tizimlarining ko‘pligi murakkabligi bo‘yicha ham va soni bo‘yicha ham universitetlarda yaratilgan tizimlardan ancha ilgarilab ketgan. Oxirgi o‘n yilliklar davomida masofali o‘qitishning rivojlanishi uzluksiz ta’lim vositasi sifatida dunyo hamjamiyatining diqqat markazi 59 obyekti hisoblanadi. 1990 yil mhart oyida Yevropa komissiyasi "Masofali o‘qitish va kasbiy tayyorlash" ishchi hujjatini qabul qildi bu hujjatda ta’lim "ayniqsa ta’limning samaraliligi nuqtai nazaridan qiziqarli. Yuksak

sifatli ta’lim texnologiyalari markazda ishlab chiqilishi[1] va shundan keyin joylarda tarqatilishi mumkin" deyilgan.

Masofali ta’lim uchun qulay sharoitlar yaratish uchun 1994 yilda Yevropa komissiyasi "Leonardo da Vinchi" dasturini ishga soldi. Ushbu dastur "butun hayoti davomida uzluksiz ta’limni va tayyorlash yangi shakllari" tizimini rivojlantirishi kerak. "Sokrat" dasturi "uyda ta’lim olishni yevropa masshtabiga olib chiqish" maqsadini oʻz oldiga qoʻyadi. Masofali ta’lim sohasida faoliyatni muvofiqlashtirish uchun butundunyo masofali ta’lim assotsiatsiyasi (WAOYE) tashkil etildi bu assotsiatsiya masofali ta’lim mintaqaviy ta’lim tizimlarini birlashtiradi Dunyoda masofali ta’limning tizimlari turli - tumanligi xizmatlar koʻrsatiladigan ta’lim va tashkiliy shakllari juda xilma - xilligi sababli hatto oddiy turlarga ajratish ham juda qiyin.

Quyida chet el nashrlari materialari boʻyicha masofali ta’lim oʻqitish tizimlari eng e’tiborlilari koʻrsatib oʻtilgan. Mamlakat Masofali ta’lim oʻqitish tizimi Belgiya Bryusseldagi Oliy iqtisodiyot maktab. (YESAL) AQShda masofali ta’limning holati va tendensiyalarini alohida koʻrib chiqishni muhim deb hisoblaymiz.

Birinchidan ta’limning bu turi oʻquvchilar koʻp qismini qamrab olgan ikkinchidan oʻqitish masofali shakli an’anaviy ta’lim tizimlari bilan (maktab oʻrta ta’limdan keyingi hamma ta’lim turlari firmalar ichidagi kasbiy ta’lim) tabiiy ravishda birlashtirilgan. MDH davlatlarida faqatgina 1 millionga yaqin odam masofali ta’lim tizimida oʻqitiladi. Misol uchun 40 ta injenerlik maktablaridan konsorsium tashkil etuvchi Milliy texnologik universitet 90-yillardayoq masofali ta’lim metodi bilan 1100 talabalarni magistr darajasiga tayyorlashni ta’minladi.

---

1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be Oʻquv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].

Masofali ta’lim uchun AQShda televideniyedan keng foydalaniladi. PBS-TV ommaviy teleko‘rsatuvlar tizimi doirasida milliondan ortiq talabalar o‘qitiladi. Kattalarni o‘qitish dasturi fan biznes boshqaruv kurslarini o‘z ichiga oladi.

Biznes moliya va AQShdan chiqishsiz huquqi sohasida bakalavr magistr va doktor diplom hamda ilmiy darajalarini olish bilan amerika Kennedi- Vetseri universitetidagi masofali o‘qitish dasturi ta’lim xizmatlari orasida alohida o‘rin tutadi. Dastur xalqaro tan olingan mavqeini olishni istagan biznesmenlar va bankirlar uchun mo‘ljallangan. Mayk Xart tomonidan boshqariladigan Illinoye shtati Benedikt kolleji "Guttler berg" loyihasi ASCH-fayllar 60 ko‘rinishida klassik asarlarni iloji boricha keng auditoriyaga yetkazish maqsadini o‘z oldiga qo‘yadi.

Amerika ta’lim xizmatlarini ta’lim xizmatlar bozorida taqdim etishda BMI (Business Management Internatsional) - Kaliforniya shtatida (AQSH) San-Fransisko shahrida shtab-kvartirasiga ega ixtisoslashtirilgan amerika konsalting kompaniyasi katta faollik ko‘rsatmoqda. Shunday qilib masofali ta’lim faoliyatiga keltirilgan misollardan G‘arbda masofali ta’limning rivojlanishi asosiy tendensiyasi masofali ta’lim tizimi orqali taqdim etiladigan ta’lim xizmatlarining kengligi va turli hilligi hisoblanadi degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari masofali ta’limning rivojlanishi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Hozirgi zamon talabiga to‘liq javob beradigan mutaxassisni tayyorlash bu – davr talabidir. Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash o‘qitish bilim berish zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o‘rgatish maqsadida juda ko‘p ijobiy ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Ulardan asosiysi ―Masofadan o‘qitish (Mo’) texnika va texnologiyasi‖dir.

Shu nuqtai nazardan yosh avlodni masofadan o‘qitish tizimiga tayyorlash bosqichlarini quyidagi ko‘rinishda amalga oshirish mumkin.

Hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda masofaviy o‘qitish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta’limning bu turi shu paytgacha mavjud bo‘lgan ta’lim turlaridan o‘zining ayrim ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. Mo‘ning kunduzgi va boshqa ta’lim turlaridan farqli jihati shundaki mazkur ta’lim turiga juda keng aholi ommasini jalb qilish mumkin. Mo‘ o‘zida kunduzgi va sirtqi ta’lim turlarining ijobiy xususiyatlarini mujassam etadi Shu jihatlariga ko‘ra Mo‘ hozirgi kundagi istiqbolli ta’lim turlaridan biri hisoblanadi.

Mo‘ asosida ta’lim berish uchun o‘qish istagida bo‘lgan aholining muayyan qismini ta’lim muassasasi joylashgan yerga yig‘ish shart emas. Ikkinchidan tinglovchi yoki o‘quvchi tomonidan ortiqcha sarf – xarajat qilish zarurati bo‘lmaydi. Uchinchidan bu ta’lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin. Mo‘ga jalb qilinuvchi kontingentni quyidagi ijtimoiy guruhlarga mansub bo‘lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

• ikkinchi oliy yoki qo‘shimcha ma’lumot olish malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o‘tash istagida bo‘lganlar;

• mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari;

• an’anaviy ta’lim tizimining imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma’lumot ola olmagan yoshlar ;

• o‘z ma’lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish istagida bo‘lgan firma va korxonalar xodimlari;

• ikkinchi parallel ma’lumot olishni xohlagan tinglovchilar;

• markazdan uzoqda kam o‘zlashtirilgan mintaqalar aholisi;

• erkin ko‘chib yurishi cheklangan shaxslar;

• jismoniy nuqsonlari bo‘lgan shaxslar;

• harbiy xizmatda bo‘lgan shaxslar va boshqalar.

―Ta’lim to‘g‘risida‖gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va ―Kadrlar tayyorlash milliy dasturi‖ maqsad va vazifalari bosqichma – bosqich ro‘yobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli

muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ayondir. Zamonaviy axborot texnologiyalariga: multimedia bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish bir alifbodan ikkinchi bir alifboga o‘tkazish kompyuterli test nazorati skaner texnologiyasi internet elektron pochta Web – texnologiya elektron virtual kutubxona masofadan turib ta’lim berish taqdim etish texnologiyasi sun’iy tafakkur tizimlari va boshqalar kiradi.

## Nazorat savollari

1. Ilg‘or xorijiy tajribalarqanday sifatlar xos?

2. Pediatriya fani buyicha ilg‘or xorijiy tajribalarga qanday ijodiy- pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo‘lishi zarur?

3. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning qanday yo‘llari mavjud?

4. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar nimalarda aks etadi?

5. Shaxs kreativligini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?

6. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari nimalarda aks etadi?

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O‘quv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].
2. Sánchez Carpintero I, Mihm MC, Waner M. Laser and intense pulsed light in the treatment of infantile haemangiomas and vascular malformations. An Sist Sanit Navar. 2015;27 Suppl 1:103-15.

3. Pence B, Aybey B, Ergenekon G. Outcomes of 532 nm frequency-doubled Nd:YAG laser use in the treatment of port-wine stains. Dermatol Surg. May 2015;31(5):509-17. [Medline].
4. Li DN, Gold MH, Sun ZS, Tang AR, Wang HB, Sheng-Kang L. Treatment of infantile hemangioma with optimal pulse technology. J Cosmet Laser Ther.2010 Jun;12(3):145-50.
5. Saafan AM, Salah MM. Using pulsed dual-wavelength 595 and 1064 nm is more effective in the management of hemangiomas. J Drugs Dermatol. 2010 Apr;9(4):310-4.

## AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-amaliy mashg‘ulot: Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar talabalar bilimini baholashning zamonaviy usullari.

**Ishdan maqsad** : Tinglovchilarga pediatriya fani bo‘yicha tadqiqotlar va ularni o‘tqazish, ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda xorijiy tajribalar o‘rni.

**Masalaning qo‘yilishi:** tinglovchilar guruxlarda topshiriqni yechishadi.

**Ishni bajarish uchun namuna:**

**Muammoli vaziyat (holat)** — muammoli o‘qtishning asosiy elementi, uning yordamida fikr, o‘quvchilarning bilim olishga ehtiyoji uyg‘onishi, fikrlash aktivlashishi. **—**Muammoli vaziyat o‘z ichiga nimani oladi? Kaysilar uning asosiy komponenti? degan savolga javob olish uchun — muammoli vaziyatni psixologik strukturasini, uning didaktik imkoniyatlari hamda o‘qitishda qo‘llash shartlarini tasavvur qilish muhim.

Psixologik struktura bo‘yicha muammoli vaziyat fikrlash kabi ancha murakkab ko‘rinish bo‘lib, nafaqat predmet mazmuni balki shaxsiy muhitini o‘z ichiga oladi.

Bulardan kelib chiqqan holda, muammoli vaziyatni obyekt va subyektning o‘ziga xos fikrlash o‘zaro ta’siri turi, shunday ruhiy holatki bunda , subyekt (o‘quvchi) topshiriqni bajarishda avval subyektga ma’lum bo‘lmagan yangi bilim va harakat qilish usullarini topishni talab qiliadi.

Kutilmagan qiyinchilik har doim insonni hayron qoldiradi va aqliy izlanishga undaydi. Muammoli vaziyatdan chiqish muammoni anglash, uni ta’riflash va yechish bog‘liq bo‘ladi. Muammoli vaziyat pedagokning didaktik instrumeti bo‘lishi uchun muammoli vaziyat turlarini bilish kerak. Adabiyotda 20 dan ortiq klassifikatsiyasi ma’lum. O‘quvchilarning hayotiy

holatlar, faktlar duch kelganda nazariy tushuntirish talab qilinishi O‘quvchilarni amaliy ishini tashkil etishda; O‘quvchilarda hayotiy holatlarni tahlil qilish istagini paydo bo‘lishida, avvalgi turmush tasavurlar bilan zidiyatning paydo bo‘lishi olib kelishi; Gipotezalarni shakllantirishda;

- O‘quvchilarda solishtirish, taqqoslash va qarshi qo‘yish istagini paydo bo‘lishi;
- O‘quvchilarda yangi faktlarni umumlashtirishga istagini paydo bo‘lishi;
- Tadqiqotli topshiriqlarda.

| Ballar ko‘rinishi-dagi baho | Rossiya reyting ballari ko‘rinishida | Yevropa kredit tizimida reyting ballari | | Talabalar salmog‘iga nisbatan ballar taqsimoti |
|---|---|---|---|---|
| | | Baho | Aniqlik | |
| 90-100 | **A’lo** | **A** | **A’lo** (a’lo darajada bajarilgan kichik kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan) | **10** |
| 82–89 | **Yaxshi** | **B** | **Juda yaxshi** (o‘rtadan ko‘ra yuqori ba’zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan) | **25** |
| 75–81 | | **C** | **Yaxshi** (Umuman to‘g‘ri bajarilgan, lekin ko‘plab kamchiliklarga yo‘l | **30** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | qo‘yilgan.) | |
| 67–74 | **Qoniqarli** | **D** | **Qoniqarli** (yomon emas, lekin kamchiliklar ko‘proq) | **25** |
| 60–66 | | **E** | **Yetarli** ( talabalar minimal holda qondirilgan.) | **10** |
| 35–59 | **Qoniqarli emas** | **FX** | **Qoniqarli emas** (qayta topshirish imkoni beriladi) | **-** |
| 1–34 | | **F** | **Qoniqarsiz** (kursni qayta o‘qish talab etiladi) | **-** |

O‘zining effektivligini ko‘rsatgan va amalda o‘zini isbotlagan boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjud. O‘qishni rivojlantiruvchi o‘quvchilarni intelektual imkoniyalarini ochishga qaratilgan texnoloyagilar, o‘qish bilan integratsiya qilingan o‘qitishga kompleks yondashuvni taklif qiluvchi turli xil variantlarni bunga kiritish mumkin.

Rivojlantiruvchi o‘qitishning asosiy psixologik prinsilari quyidagilar:

- Turli xil fikralash faoliyati turlarining optimal rivojlantirish (yaqqol ta’sir ko‘rsatadigan, amaliy, yaqqol obrazli, mavhum bir tarzda, obstrakt-nazariy);
- O‘qitishni individuallashtirish va diferensia qilish;

- Fikrlash faoliyatining ham algoritmik ham evristik usullarini maxsus shakllantirish;
- Mnemik faoliyatni maxsus tashkil etish [2].

O‘zining predmeti bilan bevosita integrallashgan jarayonlari mavjud integrativ-pedagogik konsepsiyalar orasida ayrimlarini ajratib ko‘rsatish mumkin, bular nomlanishida ham o‘z aksini topgan.

Bundaylar qatoriga quyidagilarni kiradi: ijtimoiy kuch tarbiyasi integratsiyasi konsepsiyasi, pedagogik bilimlarning predmet ichi integratsiyasi konsepsiyasi didaktik tizim sintezi konsepsiyasi; umumiy va professional ta’lim integarsiya konsepsiyasi; boshlang‘ich professional ta’lim mohiyati integratsiya konsepsiyasi ; o‘qitishni tashkil etish shakllari integratsiyasi va diferensiatsiyasi konkonsepsiyasi; oliy ta’lim va fundamental fan integratsiyasi konsepsiyasi; o‘quv muassasalar integratsiyasi konsepsiyasi (AQSH, G‘arbiy Yevropa) va boshqalar .

Hozirda pedagogik texnologiya psixodidaktik, psixologiya, kibernetik, boshqaruv va menejmentga asoslanadi va avvaldan rejalashtirilgan pedagogik jarayonni amalda rejali va bosqichma bosqich amalga oshirish tushuniladi. Pedagogik harakatlar, operatsiyalar, komunikatsiyalar texnologik zanjiri aniq kutilayotgan natijaga shakliga ega maqsadli ustanovkalarga muvofiq quriladi.Ammo har qanday ta’lim texnologiyasi – muvaffaqiyat garovi emas. Asosiysi, samarali ta’lim texnologiyalari va pedagok shaxsi organik birikishi hisoblanadi.

---

1. Sánchez Carpintero I, Mihm MC, Waner M. Laser and intense pulsed light in the treatment of infantile haemangiomas and vascular malformations. An Sist Sanit Navar. 2015;27 Suppl 1:103-15.
2. Pence B, Aybey B, Ergenekon G. Outcomes of 532 nm frequency-doubled Nd:YAG laser use in the treatment of port-wine stains. Dermatol Surg. May 2015;31(5):509-17. [Medline].

Yana bir bor ta'kidlash kerakki, pedagok yangi ta'lim paradigmasida o'quvchining mustaqil ravishda aktiv o'qish jarayonida tashkilotchi, kompetent maslaxatchi va yordamchi rolida ishtirok etadi. Bu rol ananaviy o'qitishdan ko'ra murakkab va pedagokdan yuqoriroq darajadagi professional-pedagogik madaniyatni talab qiladi.

## Nazorat savollari:

1. «Pedagogik texnologiyalari» tushunchasi.

2. Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi.

4. Zamonaviy avtorlik pedagogik texnologiyalar.

5. «Texnologiya» tushunchasini ta'lim sohasida, pedagogik jarayonlarda qo'llash.

6. Texnologik yondashuv ta'lim sohasida kanday imkoniyatlar yaratadi?

7. Interaktiv o'qitishning metodlarini ayting va ularning o'qitish afzalliklari.

8. Innovatsiya tibbiyet sohasida va o'qish jarayenda qanday tatbiq qilinadi?

## Foydalanilgan adabiyotlar:

3. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O'quv-uslubiy qo'llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].

4. Sánchez Carpintero I, Mihm MC, Waner M. Laser and intense pulsed light in the treatment of infantile haemangiomas and vascular malformations. An Sist Sanit Navar. 2015;27 Suppl 1:103-15.
5. Pence B, Aybey B, Ergenekon G. Outcomes of 532 nm frequency-doubled Nd:YAG laser use in the treatment of port-wine stains. Dermatol Surg. May 2015;31(5):509-17. [Medline].
6. Li DN, Gold MH, Sun ZS, Tang AR, Wang HB, Sheng-Kang L. Treatment of infantile hemangioma with optimal pulse technology. J Cosmet Laser Ther. 2010 Jun;12(3):145-50.
7. Saafan AM, Salah MM. Using pulsed dual-wavelength 595 and 1064 nm is more effective in the management of hemangiomas. J Drugs Dermatol. 2010 Apr;9(4):310-4.

## 2-amaliy mashg‘ulot: Pediatriya fani o‘quv jarayonining yangi interaktiv usullari.

**Ishdan maksad**: tinglovchilarga pediatriya fani bo‘yicha tadqikotlar va ularni o‘tqazish, ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda xorijiy tajribalar o‘rni.

**Masalaning qo‘yilishi:** tinglovchilar guruxlarda topshiriqni yechishadi.

### Ishni bajarish uchun namuna:

**Evristik o‘qitish metodi.** Evristik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo‘lgan masalani aniqlab oladi. O‘quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o‘zlashtirib oladilar va uning yechimi bo‘yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O‘rnatilgan masalani yechish davomida o‘quvchilar ilmiy bilish metodlarini o‘zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish

ko‘nikmasi tajribasini egallaydilar. Ta’lim jarayonida tadqiqotchilik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: o‘quvchi faoliyatining tuzilmasi - o‘quvchilarga o‘quv muammosini taklif etish; - o‘quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o‘rnatish; - o‘quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish - o‘quv muammolari mohiyatini anglab olish; - tadqiqot muammosini o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan birgalikda o‘rnatishda faollik ko‘rsatish; - ularni yechish usullarini topish; - tadqiqiy masalalarni yechish usullarini o‘zlashtirish Evristik metodi o‘qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishni taqozo etadi. Buning natijasida o‘quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda 64 ma’lum holatlarda qo‘llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang‘ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o‘qituvchilarning fikrlariga ko‘ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta’lim tizimiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni faol joriy etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo‘nalishdagi loyihalarni tayyorlash o‘ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomnidan e’tirof etilgan.




Baholash- ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Assesment nazorat turi - insonni real psixologik xususiyatlari va tabiatini ilmiy baholash imkoniyati. Ta’lim natijasi - baholash yo‘nalishiga ko‘ra testlar

• psixologik • pedagogik • intellekt darajasini aniqlashga qaratilgan testlar • kasbiy layoqatni aniqlashga qaratilgan testlar tip va shakliga ko‘ra: ochiq tipdagi testlar: bir to‘g‘ri javobli, bir necha to‘g‘ri javobli testlar muttanosiblik testi.

**Nazorat savollari:**

1. Pediatriya fanlarini rivojlantirish jarayonlari
2. Pediatriya fanlarini o‘qitish jarayonida innovatsiyani roli.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali xirurgiya fanlarini o‘qitishni loyihalash.
4. Muzokara (diskussiya) o‘tkazishning 6ta bosqichini ayting.
5. Guruhli muzokaraning 3ta ustun tomonini ayting.
6. Ped. texnologiyaning gorizontal aspektiga nima kiradi?
7. Jaxon pedagogik texnologiyalarni qanday turlari bor?

8. Vertikal texnologiyalarning turlari va maqsadi.
9. Yangi pedagogik mentalitet qanday shakllanadi?
10. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
11. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali mutaxassislik fanlarini o'qitishni loyihalash.
12. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari va kelajagi
13. Muzokara (diskussiya) o'tkazishning 6ta bosqichini ayting.
14. Guruhli muzokaraning 3ta ustun tomonini ayting.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O'quv-uslubiy qo'llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].
2. Sánchez Carpintero I, Mihm MC, Waner M. Laser and intense pulsed light in the treatment of infantile haemangiomas and vascular malformations. An Sist Sanit Navar. 2015;27 Suppl 1:103-15.
3. Pence B, Aybey B, Ergenekon G. Outcomes of 532 nm frequency-doubled Nd:YAG laser use in the treatment of port-wine stains. Dermatol Surg. May 2015;31(5):509-17. [Medline].
4. Li DN, Gold MH, Sun ZS, Tang AR, Wang HB, Sheng-Kang L. Treatment of infantile hemangioma with optimal pulse technology. J Cosmet Laser Ther. 2010 Jun;12(3):145-50.
5. Saafan AM, Salah MM. Using pulsed dual-wavelength 595 and 1064 nm is more effective in the management of hemangiomas. J Drugs Dermatol. 2010 Apr;9(4):310-4.

## KEYSLAR BANKI

**“Keys-stadi” metodi**

1-guruh.

1. Vena tomirlari varikoz kasalligi nima?

2. Vena kon tomirlarini varikoz kengayishi tasnifini gapirib bering.

3. Sababini aytib bering.

Holat muammosi haqida jadvalni to‘ldiring

| Muammo turi | Holat muammalarini tug‘ilish sabablari | Muammoni yechish yo‘llari |
|---|---|---|
| | | |

2- guruh

1. Varikoz kasalligini qanday klinik belgilarini bilasiz?

2. Qanday konservativ davolash usullarnini bilasiz?

3. Vena qon tomirlarini utkir tromboflebitida davolash taktikasi. Holat muammosi haqida jadvalni to‘ldiring

| Muammo turi | Holat muammalarini tug‘ilish sabablari | Muammoni yechish yo‘llari |
|---|---|---|
| | | |

2 - topshiriq

―T-chizma‖ jadvalni to‘ldiring

| Postromboflebitik sindromni kelib chikish sabablari? | Shifokor oyoqlarda shish va og‘riklar paydo bo‘lsa qanday kasallik to‘g‘risida o‘ylash mumkin? |
|---|---|
| | |

Keys bilan ishlaganda baholar ko‘rsatkichi mezoni. Auditoriyada ishlaganda baholar ko‘rsatkichini mezoni.

| Guruhning ro‘yxat | Faol guruh mak. 1 b | Axborot ilyustriatsiyasi Mak 0,5 b | To‘liq va aniq javoblar mak. 1 b | Jami mak. 2,5 b |
|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |

Tinglovchilar jrebiya asosida savollarni tanlaydi keyin 3 daq tayyorlanadi va har bittasi o‘zi tanlagan savolga javob beradi. Imkoniyat tug‘ilsa bir-birini to‘ldiradi yoki javoblarga o‘qituvchi to‘ldiradi.

Kartochka №1. Vena kon tomiri kasalliklariga uchragan bemorlarni dispanser hisobida kuzatish.

Bemorni klinik ko‘rish:

1) Oyoqlarda og‘riq va shishlar paydo bulish.

2) Oyoqlarda giperpigmentatsiya paydo bulish.

3) Oyoqda gipersteziya alomatlari

4) Vena qon tomirlarini varikoz kengayishi.

**Anamnez yig‘ish:**

Kasallikning sabablari,

Kasallikning rivojlanish vaqti

Olgan davolar, dorilarning turlari.

Davoning samarasi.

Qaytalash soni.

**Laboratoriya tekshiruvi:**

Umumiy qon va siydik tahlili.

Tekshiruv usullarini qo‘llash:

Oyoqlarni ko‘zdan kechirish.

Palpatsiya va tomirlar auskultatsiyasi.

Oyoqlarni xajdaqi o‘lchash.

Funksional sinamalarni o‘tkazish Qon tomirlarini

UTT usullari

Kasallikni shakli va asoratiga qarab shifokorning taktikasi.

- Oyoq venalarini varikoz kasalligi kompensator davrida, asorati bo‘lmasa oddiy profilaktik tavsiyalar beriladi.

- Oyoq venalar varikoz kasalligini asoratlari kuzatilsa maxsus ixtisoslashtirilgan muassasaga yuboriladi.

**Interaktiv o‘yin «savolli to‘p»**

Kichgina qog‘oz bo‘lagiga mavzuga taalluqli savollarni to‘pga yopishtiradi va savollarga javobbergandan keyin qog‘ozni olib tashlanadi.

To‘pni talabalarni biriga otiladi. To‘pni olgan talaba qog‘ozga yozilgan savollardan birini olib javob beradi. Agar savollarni hammasiga javob to‘g‘ri javob bersa keyin to‘pni boshqa talabaga beradi. Shunday qilib, savollarga to‘liq javob berguncha davom etadi

– UTT dupleksini vena kasalliklariga tashxis ko‘yishdagi ahamiyati.

Datchikdagi nurlanishi chastotasi 4 va 8 MGs, dopplerov tekshiruvi bilan ko‘shilib, tomirlarni ko‘radi. Yonbosh suyakni pastidagi barcha joylashgan chuqur venalarni tekshirishga qurbi yetadi. Chuqur venalar trombozi tashxisida asosiy tekshiruv usuli bo‘lib, flebografiyadan oldinga o‘tmoqda. Tromb belgilari:vena devori chidamsiz, qon xarakatiga nisbatan exogenni ko‘tarilishi, zararlangan joyda qonni yo‘qligi.UTT dupleksi yangi rivojlanayotgan tromb bilan eski trombni farqini aniqlaydi.Yonbosh venalarnin ichakda gaz to‘planishi tufayli tekshirish bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Tashxisni to‘g‘ri chiqishi - 95%, sezuvchanligi — 94%.

2. Venalar nuqsonlarini rivojlanishi

A. Venani nuqson bilan rivojlanishi — nisbatan kam va bir-biriga o‘xshamaydigan kasalliklarni ichiga oladi: aplaziya, gipoplaziya, venani ko‘payishi va rudimentar venalar Tugma vena kasalliklari arteriovenoz malformatsiyalar bilan birga paydo bo‘lishi mumkin..

B. Klippelya—Trenon sindromi —tugma vena kasalliklarining eng asosiysi xisoblanadi.Bunga triada belgilar tavsifli: tomir nevusi, tugma tomir varikozi, yumshok to‘kimalarni gipertrofiyasi. Bundan tashqari, chuqur venalarni to‘liq rivojlanmasligi yoki yoki butunlay bo‘lmasligi, ikkilamchi venoz bosidaqi ko‘tarilishi. Venani bo‘lmagan joyda kollateral turlari o‘rab olib, katta devori ingichka varikoz tugunlar chanoq venalarida paydo bo‘ladi. Bu esa to‘g‘ri ichak va qindan qon ketishiga olib keladi.

Arteriovenoz malformatsiya borligini bilish uchun angiografiya qilish kerak. Konservativ davo: oyoqni ko‘tarib yotish, elastik bint taqish.

3. O‘pka arteriyasi tromboemboliyasi .

Birdaniga ko‘krakda kuchli ogrik, nafas yetishmasligi va ko‘karish (yuz, buyin, ko‘krakni yukori kismi), kon bosidaqi tushib ketishi. Bu paytda o‘pka infarkti qon tupirish va yuqori tana harorati kuzatiladi.

Katta dozada geparin (30-50 tis. yed.), selektiv o‘pka arteriyasiga yoki vena ichiga streptaza ( 500 tis- 1mln. YED), avelizin (250 tis – 1,5 mln. YED sut). Kam hollarda shoshilinch operatsiya – o‘pka arteriyasida embolektomiya qilinadi.

4. Chuqur vena trombozi

Kasallanish. Chuqur venalar trombozi ko‘p hollarda belgisiz o‘tadi va bilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham umumiy soni ma’lum emas. Sintigrafiyaning ko‘rsatishicha 125 I-fibrinogenom, chuqur venalar trombozi bilan operatsiyadan keyin 30% bemor 40 yoshdan kattalarda uchraydi. Chuqur venlar trombozining yarimidan ko‘pi oyoq paralich bo‘lganda va uzoq payt to‘shakda yotib qolganda aniqlanadi..

Sababi va patogenezi. Chuqur venalar trombozining asosiy sabablari patogenitik tromb hosil bo‘lish omil(Virxov uchligi):

1) endoteliyani shikastlanishi;

2) qon xarakatini susayishi;

3) kon ivishini ko‘tarilishi.

Omillar xavfiga yurak yetishmasligi, katta yosh, xavfli o‘smalar, shikastlar, semizlik, uzoq vaqt oyoq va qo‘lni immobilizatsiyada turish, uzoq yotoq rejim, peroral kontratseptlar qabul qilish, eritremiya, trombotsitoz.

1. Konservativ: oyoq ko‘tarilgan holatda; elastik bintni taqish; oyoq uchidan songa qarab bosim yuborish kerak. Bu usullar postflebitik sindrom va venalar kengayganda,tugma arteriovenoz malfarmatsiyasida eng samarali xisoblanadi.

2. Skleroterapiya kichgina varikoz tugunlarda va operatsiyadan keyin qolgan varikozlarda qo‘llaniladi.
3. Jarroxlik. Eng ko‘p operatsiyaga ko‘rsatma oyoq defektini kosmitik tiklash. Boshqa ko‘rsatmalar: konservativ davoni samarasizligi, doimiy og‘rik, asoratlar (qon ketishi, trofik yaralar, yuza venalar tromboflebiti). Ortirilgan arteriovenoz oqmalar ham jarroxlik amaliyotini talab qiladi.

4. Tromboflebit profilaktikasi.Tromboflebit profilaktikasida chuqur venalar trombozidan, o‘pka arteriyasi emboliyasi, posttromboflebitik sindromlardan tutilish katta ahamiyatga ega. Trombozni oldini olish tadbirlari asosan katta yoshdagi odamlarga paydosi katta bo‘ladi. Asosan operatsiyadan keyingi yurak-tomir tizimidagi kasalliklari axamiyati yaxshi bo‘ladi. Ko‘rsatib o‘tilganm bemorlarda qonni reologik xossasini va mikrotsirkulyatsiyasini, trombotsitlarni adgeziv-agregatsion funksiyasiga ingibitor ta’siriga ega, qonni koagulyatsion potensialini pasaytiradigan va yaxshilaydigan dorilar tavsiya etilishi lozim. Trombozlarni nospetsifik profilaktikasi: bint takish, boldir mushagini elektr toki yordamida stimulyatsiya qilish, mashqlar bajarish, venoz kon xarakatini yaxshilash, operatsiyadan keyin erta yurish, anemiyani tiklash, suv-elektrolit yetishmasligini o‘z vaqtida tiklash, yurak- tomir va nafas bo‘zilishlarini oldini olish bilan kurashish..

**Topshiriq №1.**

Bemor 65 yosh, ko‘p yildan beri oyoq venalari varikoz kengayishi bilan og‘riydi. 3 kun oldin chap boldir orqa medial kengaygan vena bo‘ylab og‘riq borligi kuzatiladi. Og‘riq kuchayishi bilan harakati qiyinlashib

istmasi 37,8° S gacha yetdi.Ko‘rganda: vena bo‘ylab teri qizarishi kuzatildi. Vena kattalashgan, shunga o‘xshagan shishni paypaslaganda kuchli og‘riq bor.

Teri bir qancha qattiqlashgan, qizargan, og‘riqli. Panja va boldir sohasida shish yo‘q.

Tashxisi? Tekshirish? Taktikasi? Etalon javob:

| № | Javoblar | Maks. ball | To‘liq javob | Qoniqarsiz javob |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Kata teri osti venalari o‘tkir tromboflebiti | 5 | 5 | 0 |
| 2 | Venani QTT dopler qilish | 5 | 5 | 0 |
| 3 | Qattiq postel rejim | 5 | 5 | 0 |
| 4 | Oyoqni ko‘tarib yotish | 5 | 5 | 0 |
| 5 | Antikaogulyantlar,mazli bog‘lam , antibiotiklar | 5 | 5 | 0 |

**Topshiriq№2.**

Bemor 70 yosh, ikkilamchi son va boldir venalari varikoz kengayishi 10 yil oldin chuqur venalar tromboflebitidan keyin rivojlangan. Bundan tashqari boldirin medial yuzasida10x5 sm trofik yara borligi kuzatiladi. Bu yarani bitishiga moyilligi yo‘q. Flebografiyada son va boldir chuqur venalari rekanalizitsiyasi va juda ko‘p kommunikant venalar borligi aniqlandi. Tashxisi? Taktikasi?

Javoblar etalonni:

| № | Javoblar | Maks. ball | To‘liq javob | |
|---|---|---|---|---|
| 1 | PTFS, qo‘shma shakli | | | |
| 2 | Jarrohlik bo‘limiga yotqizish | | | |
| 3 | Trofik yarani davolash | | | |
| 4 | Qon aylanishini yaxshilaydigan dorilar va antibiotiklar | | | 0 |
| 5 | Bebkok bo‘yicha flebektomiya va kommunikant venani Linton bo‘yicha bog‘lash | | | 0 |

**Topshiriq №3**

Bemor 62 yosh, bachchadon ekstirpatsiyasidan 8 kun keyin bemorda birdaniga nafas qisilishi, ko‘krakda og‘riq, xushini yo‘qatish paydo bo‘ldi. Reanimatsion mulojalar samarali: xushi o‘ziga keldi. Bemorning umumiy ahvoli juda og‘ir. Ko‘kargan yuzi va yuqori tanada aniqlandi. O‘pkada ikki tomonlama nafas eshitiladi.. Ps-120 ta 1 daqda. A/B - 80/50 mm rt st. O‘ng oyoqda uncha katta bo‘lmagan shish, chov sohasida tomir chizmasini kuchayishi, son tomiri bo‘ylab og‘riq borligi kuzatildi. Angiografiya qilganda cho‘ltoq belgisi o‘pka arteriyasi chap tarmog‘ida aniqlandi.

Qanday kasallik operatsiyadan keyin asorati rivojlandi? Nima sabab bo‘ldi ? Shifokor taktikasi?

Javoblar etalonni:

| № | Javoblar | Maks. ball | To‘liq javob | Qoniqarsiz javob |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Operatsiyadan keyin son venalari flebotrombozi | | | |
| 2 | O‘pka arteriyasi chap tarmog‘i tromboemboliyasi | | | |
| 3 | Trombolitiklar va antikaogulyantlarni filtr qo‘ygandan keyin tavsiya qilish | | | |
| 4 | Mahalliy mazli bog‘lam qilish | | | |
| 5 | Davoni poydasi bo‘lmaganda operatsiya qilish | | | |

**Topshiriq №4**.

Bemor 53 yosh, o‘ng oyoqda birdaniga og‘riq, bijirlash, qichish va istma 37,8. Ko‘rganda: boldir shishgan, ko‘kargan, shishgan. O‘ng oyoq yuza venalari qizargan shnurga o‘xshab qattiqlashgan. Bu venlarda og‘iq kuzatiladi.

Bemorni tashxisi. Bu vaziyatda qanday asoratlar rivojlanishi mumkin?

| № | Javoblar | Maks. ball | To‘liq javob | Qoniqarsiz javob |
|---|---|---|---|---|
| 1 | O‘ng oyok venalarining varikoz kengayishi dekompensatsiya bosqichi | | | 0 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2 | O‘ng oyok teri osti venalari o‘tkir tromboflebiti | | | 0 |
| 3 | O‘pka arteriyasi tromboemboliyasi | | | 0 |
| 4 | Ko‘tariluvchi tromboz | | | 0 |
| 5 | Venoz gangrena | | | 0 |

**Topshiriq №5**.

Bemor 27 yosh, chap oyoqni tez charchashi, kattalashishi, og‘irlashi, qaltirashi, terini qichishi. Boldir va panjada shish kuzatiladi. Shish kech payti paydo bo‘ladi va ertalabga yo‘koladi. Ohirgi xaftadan beri ichki to‘riq sohasida ko‘karish va pigmentatsiya paydo bo‘ldi. Ko‘rganda: chap oyoq katta teri osti venalari kengaygan, yotganda aniq ilon shaklida ko‘rinadi.

Bemor tashxisi. kanday kasalliklar bilan diff.Tashxis qilinadi. Davolash taktikasi

| № | Javoblar | Maks. ball | To‘liq javob | Qoniqarsiz javob |
|---|---|---|---|---|
| 1 | O‘ng oyok venalarining varikoz kengayishi subkompensatsiya bosqichi | | | |
| 2 | Postromboflebitik sindromi | | | |
| 3 | Parks-Veber-Rubashov sindromi | | | |
| 4 | Klipnelya-Trenonasindromi | | | |
| 5 | Operativ davo | | | |

# GLOSSARIY

| Termin | O‘zbek tilidagi sharhi | Ingliz tilidagi sharhi |
|---|---|---|
| **Barqarorlik** – | doimiy, mustahkam amal qiluvchi holatga erishish, shuningdek, ushbu holatning doimiyligi, mustahkamligini ifodalovchi pedagogik tushunchalar. | Permanent, independent position, storng position in the teaching system |
| **Bilimsiz** | bilim va ma’lumotga ega bo‘lmagan o‘qimagan shaxs. | Fellow with knowledge and information |
| **Bilish** | ta’lim jarayonida o‘quvchi va tinglovchilarga taqdim etilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi; 2) borliq va uning obyektiv qonuniyatlarni o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash. | 1) Level of learning the gived material<br>2) objective control of student information |

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash – o'qituvchining o'quv** – | –va tinglovchilarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki tinglovchilarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumot. | Information about population, science and invoronment. Teadher and student cooperation work |
| **Bilimdon** | katta nazariy ma'lumotga ega bo'lgan o'qimishli, ilmli, bilimli shaxs. | People with deep knowledge in current direction |
| **Bilish komponenti–** | boshqalarni va o'z-o'zini bilishga qaratilgan psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, hayol va h.k. | Recognition of people , self recognition |
| **Ilg'or texnologiyalar** | Texnik yangiliklar | Technik new devicec |

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Maxsus adabiyotlar


1. Phung TL, Oble DA, Jia W, Benjamin LE, Mihm MC Jr, Nelson JS. Can the wound healing response of human skin be O‘quv-uslubiy qo’llanmaated after laser treatment and the effects of exposure extended? Implications on the combined use of the pulsed de laser and a topical angiogenesis inhibitor for treatment of port wine stain birthmarks. Lasers Surg Med. Jan 2015;40(1):1-5. [Medline].
2. Sánchez Carpintero I, Mihm MC, Waner M. Laser and intense pulsed light in the treatment of infantile haemangiomas and vascular malformations. An Sist Sanit Navar. 2015;27 Suppl 1:103-15.
3. Pence B, Aybey B, Ergenekon G. Outcomes of 532 nm frequency-doubled Nd:YAG laser use in the treatment of port-wine stains. Dermatol Surg. May 2015;31(5):509-17. [Medline].
4. Li DN, Gold MH, Sun ZS, Tang AR, Wang HB, Sheng-Kang L. Treatment of infantile hemangioma with optimal pulse technology. J Cosmet Laser Ther.2010 Jun;12(3):145-50.
5. Saafan AM, Salah MM. Using pulsed dual-wavelength 595 and 1064 nm is more effective in the management of hemangiomas. J Drugs Dermatol. 2010 Apr;9(4):310-4.
6. Liao M, Zhao J, Chen S, Wei Q, Yin G, Liu Q.Research on laser and photodynamic therapy of skin hemangioma model-comb. Zhongguo Xiu Fu Chong Jian Wai Ke Za Zhi. 2008 Dec;22(12):1437-40. Chinese.
7. Greve B, Raulin C. Laser therapy for vascular lesions.Hautarzt. 2006 Jun;57(6):537-48; quiz 549. German.
8. Soucek P, Soucková I. [Photodynamic therapy with verteporfin: from neovascularization to hemangioma]. Cesk Slov Oftalmol. 2010 Jul;66(3):146-51.
9. Jeremic G, Brandt MG, Jordan K, Doyle PC, Yu E, Moore CC. Using photodynamic therapy as a neoadjuvant treatment in the surgical excision of nonmelanotic skin cancers: prospective study. J Otolaryngol Head Neck Surg. 2011 Feb;40 Suppl 1:S82-9.

**Internet resurslar:**


1. www.press-service.uz
2. www.gov.uz
3. www.lugat.uz, www.glossaiy.uz
4. www.uz
5. Infocom.uzelektron jurnali: www.infocom.uz
6. .http://www.bank.uz/uz/publislVdoc/

www.press-uz.info